

“HUJUM” KOMPANIYASINING BOSHLANISHI VA UNING SABABLARI

Tojiboyev Munavvarjon No‘monjonovich

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi

Farg‘ona akademik litseyi tarix fani bosh o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Sovet davrida O‘zbekiston SSR da olib borilgan “Hujum kompaniyasi” boshlanishi, sabablari hamda oqibatlari haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so‘z: *“Hujum”, Yangi iqtisodiy siyosat (YaIS), paranji, chachvon.*

Sovet yillarida xotin-qizlarga nisbatan munosabatda o‘z maqsadmanfaatlaridan kelib chiqqan holda siyosat olib bordi. Shuning uchun ham mazkur masalani mafkuraviy tazyiq ostida hal etishga harakat kilinishi og‘ir oqibatlariga olib keldi. Ya’ni, sovet hokimiyati va kommunistik partiya o‘z oldiga “ayollarning butunlay yangi avlodini, ularni faqat oilani uylaydigan shaxslar emas, balki ko‘proq jamiyat ijtimoiy, siyosiy hayotida erkaklar bilan teng va faol ishtirok etish zarur bo‘lgan shaxslar etib tarbiyalashni asosiy vazifa qilib qo‘ygan edi”

Shuning uchun xotin-qizlarni har sohada erkaklar bilan “teng huquqliligini ta’minlash”ning butun bir tizimi ishlab chiqdiki, uning asosini xotin-qizlar faoliyatiga ta’sir etishning mafkuraviy va ishlab chikarish omillari tashkil etdi. Ayollarning teng huquqligi uchun kurash bugunga qadar tarixshunoslikda “Hujum” kompaniyasi yoki harakati nomi bilan ataldi. Sovet hokimiyati, garchi, ushbu kompaniyani o‘ta qat’iy va biryoqlama tarzda

o‘tkazgan bo‘lsa ham, XX asrning 20-yillar boshlaridanoq unga tayyorgarlik ko‘rdi va amalga oshirdi. Sovet hokimiyati uchun XX asr 20-yillari ijtimoiy-siyosiy hayotida xotinqizlarni ozod qilish muammosi alohida o‘rin egallagan. Chunki millylashtirish, rayonlashtirish, yer-suv islohoti singari iqtisodiy tadbirlar tufayli davlatning qo‘lida juda katta yer va korxonlar to‘plandi-ki, ularni to‘la quvvat bilan yurgizish uchun erkak ishchilar yetishmasligi ayon bo‘ldi. Respublikadagi mavjud ijtimoiy tashkilotlar bu muammoni xotin-qizlar o‘rtasida savodsizlikni tugatish, qishloq xo‘jaligi, sanoat va ishlab chiqarish, umuman ularni ijtimoiy hayotga jalb etish orqali hal etishga uringan. Bu tadbirlar ayollarning oilani

emas, balki, jamiyatda erkaklar bilan teng asosda faol ishtirok etishni istaydigan butunlay yangi avlodini shakllantirish uchun xizmat qildi. Mamlakatda Yangi iqtisodiy siyosat (YaIS) bois ruy bergan o‘zgarishlarning muhim natijalaridan biri bu - aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlashdagi sezilarli burilish bo‘ldi. Ocharchilik dahshati yengib o‘tildi.

20–30-yillarda sovet jamiyatining eng ommaviy tashkiloti bo‘lgan kasaba soyuzlarida ham xotin-qizlarning roli katta bo‘ldi. Ular kasaba soyuz a’zolari sonining yarmidan kuprog‘ini, ya’ni 52 foizini tashkil etgan. Respublika kasaba soyuzlari kengashi tarkibida 215 nafar xotin-qiz bo‘lib, ular 47 foizni tashkil etishgan. Farg‘ona vodiysida esa bu ko‘rsatkich 40 foiz atrofida bo‘lgan. Kasaba uyushmalarining tashkil etilishi va faoliyat olib borishi uchun sovet hokimiyatining moddiy va ma’naviy yordamini olishi “Hujum”

kampaniyasiga tayyorgarlikning asosiy bosqichlaridan biri bo'ldi. Chunki kasaba uyushmalari jamiyat aholisining yarmi atrofida ayollarni bir yerga jamlash, ularni o'z g'oyalari uchun ishontirish va ulardan sotsializm qurishda foydalanishda birlamchi yacheyka rolini o'ynashi kerak edi.

1920–30-yillarda xotin-qizlar o'rtasida ommaviy-madaniy tadbirlarni rivojlantirish uchun ularni madaniy jarayonlar, xususan badiiy havaskorlik ijodiyotiga kengroq jalb etishga ko'rsatma berildi. Shu maqsadda hukmron siyosiy mafkura xotin-qizlar badiiy havaskorlik ijodiyotidagi ixtiyoriylik tamoyillarini inkor eta boshladilar va shu maqsadda ko'proq ma'muriybuyruqbozlikka asoslangan ish uslublarini qo'llay boshladilar.

Sovet hokimiyati hali ayollar masalasini ko'tarmagan yoki bolsheviklar hokimiyati to'la mustahkamlanib ulgurmagani dastlabki yillarida ayollar hech qanday qarshiliksiz (albatta paranji ichida) bichish-tikish, savdo-sotiq yoki ilm olish bilan shug'ullanishar edi. Sovet hokimiyati tarafdori bo'lgan faollar asosan ishontirish usuliga tayanib, barcha tadbirlarni xotin-qizlar turmush tarziga xos xususiyatlarga, milliy an'analarga mutanosib holda olib bordilar, deb bo'lmaydi. Dastlab ayollarning yuzini ochish, paranjini tashlash haqida lom-mim deyilmagan. Avval, ayollar o'rtasida targ'ibot-tashviqot ishlari ko'proq

“sotsializm g'oyalari” ga ishontirish usuliga suyanilgan. Natijada, ayollarning teng huquqliligini ta'minlash, jamoat ishlarida faol ishtirok etishi borasida muayyan natijalarga erishilgan. Lekin, sovet hukumatining iktisodiy ehtiyojlaridan kelib chiqib, xotin-qizlarga munosabatlardagi “eskilik sarqitlari” ga qarshi “kurash”, ularni “ozodlikka chikarish” bahonasida 1927-yilda respublikada ayollar borasidagi sovetlarning asosiy ijtimoiy-siyosiy tadbiri “Hujum” harakati boshlandi. O'zbek xotin-qizlari taqdirida o'tkazilgan bu harakat sovetlarning navbatdagi mustamlakachilik mohitidagi tajovuzkorona siyosati bo'lib, bu tom ma'noda fakat xotin-qizlar taqdiriga emas, balki o'zbek xalqining an'analari, udumlari, tarix, dini, tili, madaniy va ma'naviy qadriyatlariga qilingan hujum edi. O'zbekiston mustaqillikning qo'lga kiritgungacha “Hujum” harakati sovet davlatining ayollar emansipasiyasi borasidagi ijobiy siyosati va uning natijasi o'laroq talqin qilingan. Lekin, istiqloq davrida o'sha vaqtlarda mavjud bo'lgan biroq umuman gapirilmagan ijtimoiy hayotimizdagi ma'naviy va ruhiy inqirozning mohiyatini chuqurroq o'rgana boshlagach, bolsheviklar mustamlakachilik siyosatining barcha jihatlari fosh bo'lib, ular o'z vaqtida boshimizga tushgan barcha kurguliklarimizning sababi sifatida namoyon bo'la boshladi.

Xotin-qizlarni “ozodlikka chikarish” bahonasida boshlangan “Hujum” kampaniyasini utkazish uchun 1926 yil dekabr oyida O'zbekistonda va xususan Farg'ona vodiysi hududlarida maxsus komissiyalar tuzildi.

“Hujum” va uning salbiy oqibatlarini haqida yozuvchi Chingiz Aytmatov: “Afsuski, davlat tomonidan o'tkazilgan “Hujum” kampaniyasi o'sha davrning o'z xatolaridan biri edi, deyish kamlik qiladi. Bu insoniyatga qarshi qaratilgan jinoyat edi... Ular “yangi odam yaratamiz” deb, dahshatli o'yin boshladilar”. Bolsheviklar barcha “qoloqliklar” ning sababini din bilan bog'lashga harakat qilishdi. Islom dini xotin-qizlarning ijtimoiy hayotda va ishlab chiqarishda faol qatnashishini man etmasa-da, islom dinini tan olmaslik siyosati olib borildi. Bu o'z navbatida mahalliy aholi orasida sovet hokimiyatiga qarshi norozlik va dushmanona kayfiyatini kuchaytirdi. Shuning uchun ham “...ayollar o'rtasida dinga qarshi tashviqotni keskin kuchaytirish, ularni ijtimoiy mehnatdan chetlashtirib yuborishi”

mumkinligi tufayli sovetlar tomonidan “ko‘pxotinlik va qalin olinishi dinning aybi” qilib ko‘rsatildi.

1927-yil 8-mart kuni O‘zbekistonda “Hujum” kampaniyasi boshlandi va mamlakat bo‘ylab bo‘lgan mitinglarda minglab xotin-qizlar qatnashishda ham o‘z paranjilarini tashladilar². Lekin bu ijtimoiy-siyosiy tadbirni o‘tkazishda sovet tuzumi shakllantirayotgan o‘sha davrdagi ijtimoiy ahvol, milliy va ma‘naviy tushunchalar, oiladagi nihoyatda nozik bo‘lgan erkak va ayol munosabatlari, kishilar ongida ming yillar davomida shakllangan islom qadriyatlarini, oila va ayollar masalasidagi mavjud an‘analar, urf-odatlar e‘tiborga olinmadi. Ular shunchaki, buzib tashlandi va zamonaviy “sovet kishisi”ni tarbiyalash boshlandi.

Xulosa kilib aytish mumkinki, “Xujum” kampaniyasi jarayonida jiddiy kamchiliklarga yo‘l qo‘yildi. Eng avvalo, bu tadbir shoshma-shosharlik bilan, o‘zbek xalqiga xos milliy xususiyatlar, urf-odatlar o‘rganilmasdan amalga oshirildi. Ushbu uarakat sovet hokimiyatining iqtisodiy manfaatlaridan kelib chiqib, xotin-qizlarni “ozodlikka chiqarish” jarayonini sun‘iy usullar bilan jadallashtirish uchun yo‘lga qo‘yildi. Shunday bo‘lsa-da, uning ijobiy tomonlari ham ko‘zga tashlandi. Xsus, o‘zbek ayolining jamiyatda teng huquqlikka erishishida, ijtimoiy hayotda erkaklar bilan barobar mavqega ega bo‘lishida

muhim qadam tashlandi. Bugungi kunda davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan ayollar emansipatsiyasi, gender tengligi masalalarining zamonaviy huquqiy va ijtimoiy-iqtisodiy asosini barpo etishda ayni harakat ilk tajriba vazifasini o‘tadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Аббасова Л., Рахимбабаева Т. Участие женщин в культурном строительстве Узбекистана в годы войны // *Общественные науки в Узбекистане*. – Тошкент, 1975. – №5.

2. Айтматов Чингиз. Қояда қолган кўз ёшлар // *Жаҳон адабиёти*. 1997. – №2.

3. Алимова Д.А. Решение женского вопроса в Узбекистане (1917-1941 гг). – Ташкент, 1987.

4. Аминова Р.Х. Совет шарқи ва хотин-қизлар. Совет шарқи таракқиётининг нокапиталистик йўли ва хотин-қизларнинг озодликка чиқиши. – Тошкент: Қизил Ўзбекистон, Правда Востока ва Ўзбекистони Сурх нашриёти, 1964

5. Нишонова Қ. Ўзбекистонда хотин-қизлар масаласини ҳал этишнинг маданий жиҳатлари ва муаммолари // *Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти хабарлари*. 2017. №1.

6. Собирова Д. Ўзбекистонда совет тоталитар тузумининг аёллар масаласидаги сиёсати ва унинг оқибатлари (XX асрнинг 40–80-йиллари). Ўқув қўлланма. – Тошкент, 2010.

7. Тошбоева Т.Х. Ўзбек аёли ўтмишда ва ҳозирги кунда. – Тошкент, 1987

8. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. – Тошкент, 2000.

9. Ibragimova Sarvinoz Ne‘matjon qizi. O‘zbekistonda “Hujum” kompaniyasining amalga oshirilishi: yutuq va muammolar (Farg‘ona viloyati misolida) magistrlik

dissertatsiyasi.